

O'ZBEK TILI NEKRONIMLARIDA TOPOFORMANTLARNING QO'LLANISHI

Kaxarov Shuxratbek Tursunovich

Andijon davlat universiteti, O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15314327>

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tili nekronimlari tarkibida qo'llangan topoformantlar tahlil etilgan va guruhlashtirilgan. Ularning aksariyati o'z qatlam elementlari ekani ta'kidlangan. Shuningdek, ayrim nekronimlar etimonlariga aniqlik kiritilgan. Misollar tahlilida qiyosiy-tarixiy metoddan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: nekronim, toponim, apellyativ, formant, topoformant, etimologiya, o'zbek tili, turkiy tillar, qadimgi turkiy til, qabrison.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТОПОФОРМАНТОВ В НЕКРОНИМАХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В статье анализируются и группируются топоформанты, используемые в структуре узбекских некронимов. Подчеркивается, что большинство из них являются элементами узбекского пласта. Также были уточнены этимоны некоторых некронимов. При анализе примеров использовался сравнительно-исторический метод.

Ключевые слова: некроним, топоним, апеллатив, формант, топоформант, этимология, узбекский язык, тюркские языки, древнетюркский язык, кладбище.

USE OF TOPOFORMANTS IN NECRONYMS OF THE UZBEK LANGUAGE

Abstract: The article analyzes and groups topoformants used in the structure of Uzbek necronyms. It is emphasized that most of them are elements of the Uzbek layer. The etymons of some necronyms were also clarified. The comparative-historical method was used in the analysis of examples.

Keywords: necronym, toponym, appellative, formant, topoformant, etymology, Uzbek language, Turkic languages, old Turkic language, cemetery.

KIRISH

Toponimik tadqiqotlarda joy nomlarini oxirgi qo'shimchalariga qarab o'rganish, guruhlashtirish, tahlil qilish XX yuzyillik boshlarida ommalashdi¹. Joy nomlarida faol takror qo'llanuvchi shakllarni alohida ma'noga egaligi, funksiya bajarish xususiyati borligi kabi jihatlardan kelib chiqib, *formant*, *keyinchalik topoformant* kabi terminlar bilan nomlaganlar². Toponimlar tarkibiy qismi bo'lgan formantlar haqida ularning qo'shimchaga teng ekani aytiladi. Joy nomlarining morfologik tuzilishi va yasallishiga doir ishlarda asosan affiksatsiya va kompozitsiya usullari qayd etiladi. Toponimchi olim Z.Do'simov sohaga doir deyarli barcha ishlarda turkiy toponimika yasallishida *-lik*, *-ma*, *-chi*, *-li*, *-lar* affikslari izohlanganini ta'kidlaydi³. Mazkur maqolada Andijon viloyati sodda tipli nekronimlarida (qabrison nomlarida) formantlarning qo'llanishi masalasiga to'xtalamiz.

¹ Каранг: Орлов А. Происхождение названий русских и некоторых западно-европейских рек, городов, племен и местностей. – Вельск: Типография М.П.Киснемского, 1907. – 430 с.; Соболевский А.И. Названия рек и озёр русского Севера. – Л.: Академия наук, – 1927. – 42 с.; Дульзон А.П. Вопросы этимологического анализа русских топонимов субстратного происхождения // Вопросы языкознания, № 4, 1959. – С. 35-46.

² Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'FMJ nashriyoti, 2006. – B. 31.

³ Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 40.

ASOSIY QISM

Apellyativi tarkibida *-lik* affiksi qatnashgan sodda tip nekronimlar, asosan, hozirgi qatlam lugʻaviy birliklarini tashkil qiladi. Oʻzbek tili toponimikasida ushbu affiks faol topoformantlardan sanaladi va koʻplab joy nomlari tarkibida keladi. Ushbu affiksning xususiyatlariga toʻxtalgan A.Hojiyev oʻrin-joy semali soʻzlar yasashiga ishora qilib, “kasb-hunarga oid joy (territoriya) maʼnosini bildiruvchi, asosdan anglashilgan narsa ishgʻol etgan obyekt va territoriyaning bildiruvchi, yer sathining yasovchi asosdan anglashilgan qismini bildiruvchi ot yasaydi”⁴ kabi izohlar beradi.

Jumladan, *-lik* formanti qatnashgan *Qirlik*, *Boʻrilik*, *Andijonlik*, *Qoʻqonlik*, *Qiyalik*, *Choʻrtanlik* kabi nekronimlarda oʻrin-joy semalari yaqqol koʻrinib turibdi.

Andijonlik, *Qoʻqonlik* nomlarida aholining koʻchib kelgan hududiga ishora bor. *Qirlik*, *Qiyalik*, *Qiyali* nomlarida esa hudud relyefi, atrof-muhit landshafti ifodalangan. *Boʻrilik* nomi dastlab etnonim boʻlgan⁵. Soʻngra nom oykonim < nekronim vazifalariga oʻtgan. Boʻrining turkiy xalqlarda, jumladan, qadimgi oʻzbek urugʻlarida ham totem xarakterida boʻlgani maʼlum. Bundan tashqari, qadimgi turkiy til uygʻur yozuvi yodgorliklarida *Boʻrilik* nomiga yaqin boʻlgan “boʻrluq” soʻzi uchraydi⁶. S.Y.Malov orqa qator unlilar bilan oʻqigan bu soʻzni E.Fozilov old qator unlilari bilan “börlük” shaklida oʻqiydi⁷. Ikkala muallifda ham bu soʻz “uzumzor, tokzor” maʼnosida qoʻllangan. E.Fozilov bu soʻzni *-lik* affiksi bilan yasalganini taʼkidlab, “soʻzning oʻzagida ifodalangan predmetning toʻplangan, jam boʻlgan oʻrnini koʻrsatadi” deydi⁸. *Choʻrtanlik* esa Izboskan tumanida Tentaksoy boʻyida joylashgan kichik bir qishloq nomi sanaladi. Choʻrtan baliq chuchuk suv havzalarida tarqalgan mayda, oʻtkir tishli yirtqich ov baligʻi boʻlib, turlarining xilmaxilligi va yashash arealining barcha turkiy xalqlar regionlari boʻyicha juda keng tarqalganidan turkiy tillarda ayrim fonetik farqlar bilan deyarli bir xilda nomlanadi. Oʻzbek, turkman, tatar tillarida *choʻrtan*, noʻgʻay, qozoq, qoraqalpoq tillarida *shoʻrtan*, qirgʻiz, oltoy, tuva tillarida *choʻrtoʻn*, boshqird, xakas tillarida *soʻrtan*, yoqut tilida *soʻrdoʻn*, chuvash tilida *sartan*⁹. L.Budagov lugʻatida esa moʻgʻulchasi tsoʻrtoʻ ekani koʻrsatiladi¹⁰. Demak, apellyativ asos umumturkiy boʻlganidan, ajdodlarimizning olamni bilishi, tafakkur tarzi va madaniy xususiyatlaridan kelib chiqib, *choʻrtanlik* soʻzining dastlab yo etnonim, yoki gidronim boʻlgani haqida taxmin qilamiz.

Baʼzi nekronimlarda *-lik* affiksi apellyativ tarkibida mavhum ot yasaydi: *Mangulik*, *Doʻstlik*, *Oʻrtoqlik*, *Mustaqillik* qabristonlari.

Belgilangan areal nekronimlari tarkibida *-chi* yasovchi formanti ham faol qoʻllangan: *Ayronchi*, *Baliqchi*, *Qirmachi*, *Dasturxonchi*, *Paxtachi*, *Changʻaraqchi*, *Ipakchi*, *Kigizchi*, *Qushchi*, *Quchchi*, *Olaychi*, *Navkanchi*. Ushbu *-chi* yasovchisi haqida A.Hojiyev “hozirgi oʻzbek tilida ish koʻrishi toʻxtamagan” deb tavsif beradi¹¹. Darhaqiqat, mazkur formant oʻzbek tili (turkiy tillar) taraqqiyotining barcha davrlarida sarmahsul yasovchi boʻlib kelgan hamda asosdan anglashilgan sohaga mansublikni, aloqador boʻlgan shaxsni bildiruvchi soʻz yasaydi. Affiksning

⁴ Хожиев А. Ўзбек тилида сўз ясашиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 42-43.

⁵ Oʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – B. 89.

⁶ Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М.Л.: Академия наук, 1951. – С. 210, 214.

⁷ Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 49.

⁸ Ўша асар. – Б. 49.

⁹ Тенишев Э.Р. и др. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Лексика. – М.: Наука, 2001. – С. 178.

¹⁰ Будагов Л. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. В двух томах. Том 1. – СПб.: Типография императорской академии наук, 1869. – С. 493.

¹¹ Хожиев А. Ўзбек тилида сўз ясашиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 38.

mazkur xususiyati turkiyshunoslikda eng qadimgi davrlarga oidligi ta'kidlanadi¹². Jumladan, *Ayronchi*, *Baliqchi*, *Qirmachi*, *Dasturxonchi*, *Paxtachi*, *Chang'araqchi* (chang'araq – o'tovning eng yuqorisidagi halqasimon qism), *Ipakchi*, *Kigizchi*, *Qushchi* nekronimlarida ayni xususiyat mavjud. Tadqiqotchi A.Ergashev *Ayronchi* va *Baliqchi* nomlarini etnonimlarga kiritgan va mazkur affiksni etnonim yasovchi formant deb ajratgan¹³. Bunda etnonim < oykonim < nekronim ketma-ketligida metonimik yo'l bilan nom ko'chgan. *Qushchi*, *Quchchi* nekronimlari uchun *Qutchi* etnonimi asos bo'lgan¹⁴. *Olaychi*, *Navkanchi* nomlarida esa joyga mansublik ifodalangan. Hozirgi o'zbek tili uchun *-chi* affiksiga bunday xususiyat xarakterli emas, albatta. Bu mazmunni ifodalash uchun faqat *-lik/-li* affikslari qo'llanadi. Lekin bu xususiyat ayrim turkiy tillarda saqlangan: qarachay-balqar tilida "billimchi – Billim qishlog'idan bo'lgan odam", tuva tilida "qizilchi – Qizil shahridan bo'lgan odam"¹⁵. *Qirmachi* apellyativini izohli lug'atdagi "Qirmachi – qirma chopiq qiluvchi, chopiqchi"¹⁶ mazmuni bilan ham bog'lash mumkin, chunki mashg'ulot egasi bo'lgan shaxsga ishora bor. Shuningdek, qirg'iz tilidagi "qirmachi (qovoqdan, yog'ochdan qoshiq va boshqa idishlar tayyorlovchi usta)" so'zi ham mazkur nekronim apellyativi bo'lishi mumkin. Qirmachiliklarning bir qismi qirg'iz tilli aholi sanaladi, shuning uchun keyingi variant asosliroq ko'rinadi.

Ko'tarma, *Qayirma*, *Qurama*, *Yondama* nekronimlarining apellyativida *-ma* affiksi qatnashgan. Ushbu affiks hozirgi o'zbek tilida asosan fe'llardan ot yasaydi: tenglama, eritma, ko'rgazma kabi. Qadimgi turkiy til manbalarida ham *-ma* affiksining fe'llardan ot yasaganini kuzatamiz. Biroq nemis olimasi A.Gaben bu haqida "misollari oz uchraydi, ko'proq sifat yasaydi" deydi¹⁷.

Qayirma toponimi haqida gap ketganda, S.Qorayev "muyulish" so'zi bilan izohlaydi¹⁸. *Qayir* deb vaqti bilan daryolar toshgan mahalda suvostida qoladigan qirg'oq hududlarga aytiladi¹⁹. Odatda, qayirlarning kengligi daryodan hisoblaganda bir necha o'n metrlardan bir necha kilometrlargacha bo'ladi. O'TILda *qayir* so'zi etimoni arabcha deb ko'rsatiladi. Bizningcha, geografik atamaga aylangan *qayir* so'zi sof turkiy bo'lib, *qayirmoq* fe'lidani kelib chiqqan. Chunki o'zbek va ayrim qardosh tillarda bu fe'lning semalari orasida *qaytmoq*, *qaytarmoq* semalari ham bor²⁰. Ya'ni, "suv qaytadigan" degan ma'noni ifodalagan.

Ko'tarma apellyativi lug'atlarda "tuproqdan baland qilib, ko'tarib ishlangan tepalik, g'ov to'siq"²¹ hamda charxpalak vositasida soy yoki ariqdan suv chiqishi qiyin yerlarga suv chiqarish kabi ma'nolarda izohlangan. *Qurama* nekronimi esa dastlab oronim (S.Qorayev, Y.Avlaqulov), etnonim (S.Qorayev, Z.Do'simov, A.Ergashev), oykonim (Z.Do'simov, A.Ergashev) vazifalarida

¹² Тенишев Э.Р. и др. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Морфология. – М.: Наука, 1988. – С. 144.

¹³ Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 39, 49, 113.

¹⁴ O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – B. 388.

¹⁵ Тенишев Э.Р. и др. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Морфология. – М.: Наука, 1988. – С. 146.

¹⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2008. – Б. 298.

¹⁷ Gabain A. Von. Eski türkçenin grameri. – Ankara: Türk tarihi kurumu, 1988. – S. 53.

¹⁸ Қораев Суюн. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: ЎМЭ, 2005. – Б. 43.

¹⁹ Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2008. – Б. 211.

²⁰ Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2008. – Б. 212; Юдахин К.К. Киргизско-русский словарь. В двух книгах. Кн. 1. – Фрунзе: Главная редакция КСЭ, 1985. – С. 325.

²¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2006. – Б. 474; Яна қаранг: Ғуломов П.Н. Мактаб жўғрофия атамалари ва тушунчалари изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 62.

qo‘llangan²². Yondama nekronimiga asos bo‘lgan ayni qishloq nomida geografik relyef xususiyatlari aks etgan. Qir-adirlarning yonbag‘irlari, qiya joylari yondama deyiladi²³ va haqiqatan, mazkur hudud adirlik yonbag‘irlari sanaladi.

Nekronimlarda *-lar* affiksining qo‘llanishi ham keng tarqalgan. Toponimik formantlar orasida *-lar* affiksi ham yuqorida ko‘rib chiqilgan formantlar qatori alohida ajratib ko‘rsatiladi. Toponimchi olim S.Qorayev “*-lar* affiksi ko‘plab toponim yasaydigan topoformant hisoblanadi” deydi²⁴. Chunonchi, ushbu formant asosan etnik nomlar tarkibida qo‘llanadi. Hamda ushbu etnik guruhlar asosida shakllangan toponim, jumladan, nekronimlar tarkibida uchraydi. Andijon viloyatida *-lar* formanti qo‘llangan *Nasroniylar, Ruslar, Tatarlar, Koreyslar, Qrim-tatarlar, Xo‘jalar, So‘pilar, Yuzlar, Kallar, Ziyolilar, Qardoshlar* kabi nomli qabristonlar bor. *Nasroniylar* nomida diniy mansublik ifodalangan. *Ruslar, Tatarlar, Koreyslar, Qrim-tatarlar* nomlarida etnik mansublik, *Qardoshlar* nomida esa ijtimoiy, etnik va diniy yaqinlik ifodasi bor. *Xo‘jalar, So‘pilar, Ziyolilar* nomlarida aholi ijtimoiy tabaqalariga oidlik ifodalangan. *Yuzlar, Kallar* nekronimlarida urug‘-aymoqlarga mansublik o‘z ifodasini topgan.

Chavkan (Chavgan), Zankan, Navkan, Tabrikan, Sutkon (Sutkan) kabi nekronimlar tarkibidagi *-kan* topoformanti hudud, jumladan, mintaqa toponimikasida faol qo‘llanuvchi tarixiy formantlar sirasiga kiradi. Mazkur tipdagi nekronimlar, asosan, oykonimlar asosida shakllangan. Manbalarda *-kan* topoleksema ekani haqida ma‘lumotlar ko‘p. M.Koshg‘ariyning lug‘atida *kan* mustaqil so‘z sifatida “Kun chiqar tomondagi hir bir shaharga *kan* deydilar. Bu so‘z *kand*ning qisqarganidir” deb izohlangan²⁵. Lug‘atda Toshkent toponimi izohida ham kuzatamiz: “Tarkan – Shoshning ismi. Uning asli Toshkand bo‘lib, toshdan qurilgan shahar demakdir”²⁶.

Qadimgi turkiy til lug‘atida *kand* so‘zi so‘g‘dcha deb ko‘rsatiladi va shahar ma‘nosini ifodalashi aytiladi²⁷. Z.Do‘simov bu so‘zning etimologiyasiga ehtiyohtkorlik bilan yondashib toponimik termin sifatida hind-yevropa tillarida, shuningdek, turkiy va fin-ugor tillarida faol qo‘llanishini ta‘kidlaydi, *kat, kent, kant, kan* variantlarda qo‘llanishini ko‘rsatib o‘tadi. Mazmun jihatidan shahar, qishloq ma‘nolarini ifodalashini aytadi²⁸.

Chavkan nekronimiga kelsak, bu nom qo‘ng‘irot urug‘ining chavgan degan tarmog‘idan kelib chiqqani aytiladi²⁹. Bu yerda etnonim uchun asos bo‘lgan tamg‘a *chav/chov* – “cho‘mich” so‘zi motiv sifatida ta‘kidlangan. *Chav* so‘zi Koshg‘ariy lug‘atida uchramadi, lekin undagi *chavur, chavrush, chavurkan* kabi misollarning asosi “aylana, doira” degan ma‘nolarga to‘g‘ri keladi. Bizningcha ham, yuqorida taklif qilingan etimonga aloqadorlik mavjud. *Navkan* nekronimiga kelsak, u mazkur nomdagi oykonim asosida shakllangan. So‘g‘dcha “yangi qishloq” tarzida izohlanadi³⁰.

²² Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: ЎМЭ, 2005. – Б. 240; Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номлари қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – Б. 155; Эргашев А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Филол.фан.ном. ... дисс. – Тошкент, 2012. – Б.48; Авлакулов Я. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи: Филол.фан.ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б.19.

²³ Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 20.

²⁴ Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘FMJ nashriyoti, 2006. – B. 8.

²⁵ Кошгари́й М. Девону луғотит-турк. Уч томлик. 1-том / таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси, 1960. – Б. 327.

²⁶ Ўша асар. – Б. 414.

²⁷ Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – С. 290.

²⁸ Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – Б. 79.

²⁹ O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – B. 584.

³⁰ Ўша манба. – Б. 272.

Adabiyotlarda topoformant sifatida ta'kidlanmasa ham, fors tilidan o'zlashgan va o'rin-joy semali otlar yasaydigan *-zor*, *-iston*, *-goh*, *-qoh* kabi affikslar nekronimlar tarkibida uchraydi. Masalan, *Tutzor* va *Tolzor* nekronimlari bevosita qabristonlar nomi sanaladi. *Shuvoqzor* nekronimi ayni paytda oykonim sanaladi. Bu formant asosda anglashilgan o'simliklar ko'p miqdorda o'sgan joyga ishora qiladi. Ya'ni, hudud o'simlik landshafti xususiyatini ifodalagan. *Namozgoh*, *Guliston*, *Xonaqoh* kabi nekronimlar apellyativida formantlar shu qatlam leksemalaridan nom yasagan.

Affiksli sodda tip nekronimlar orasida *Eroniy*, *Yahudiy*, *Markaziy*, *Navoiy*, *Yuksalish*, *Ro'zador*, *Baqiroq*, *Oyim*, *Yashasin*, *Erkin*, *Otajon*, *Gurkirov*, *Aravakash*, *Barhayot* kabi nomlar ham bo'lib, ulardagi qo'shimchalarning o'rin-joy semasi bilan ot yasash yoki topoobyekt nomiga ishora qilish funksiyasi bo'lmaganidan, ularni topoformant o'laroq ajratmadik.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkin, birinchidan, Andijon viloyati sodda tip nekronimlarida turkiy qatlam topoformantlari faol qo'llangan. Ikkinchidan, ular asosan o'z qatlam leksemalaridan nom yasaydi. Uchinchidan, nekronimlarda o'zlashgan qatlam formantlari oz bo'lib, ular o'z va o'zlashgan qatlam leksemalari asosida nom yasaydi. To'rtinchidan, nekronimlar apellyativida o'rin-joy semali nom yasash xususiyati bo'lmagan affikslar topoformant sifatida ajratilmadi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Gabain A. Von. Eski türkçenin grameri. – Ankara: Türk tarixi kurumu, 1988.
2. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022.
3. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'FMJ nashriyoti, 2006.
4. Авлакулов Я. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи: Филол.фан.ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012.
5. Будагов Л. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. В двух томах. Том 1. – СПб.: Типография императорской академии наук, 1869.
6. Ғуломов П.Н. Мактаб жўғрофия атамалари ва тушунчалари изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
7. Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969.
8. Дульзон А.П. Вопросы этимологического анализа русских топонимов субстратного происхождения // Вопросы языкознания, № 4, 1959. – С. 35-46.
9. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1984.
10. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номлари қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977.
11. Кошғарий М. Девону луғотит-турк. Уч томлик. 1-том / таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси, 1960.
12. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: ЎМЭ, 2005.
13. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М.Л.: Академия наук, 1951.
14. Орлов А. Происхождение названий русских и некоторых западно-европейских рек, городов, племен и местностей. – Вельск: Типография М.П.Киснемского, 1907.
15. Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
16. Соболевский А.И. Названия рек и озёр русского Севера. – Л.: Академия наук, – 1927.
17. Тенишев Э.Р. и др. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Лексика. – М.: Наука, 2001.
18. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2006.
19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2008.

20. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. – Тошкент: Фан, 1965.
21. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида сўз ясаши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989.
22. Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012.
23. Юдахин К.К. Киргизско-русский словарь. В двух книгах. Кн. 1. – Фрунзе: Главная редакция КСЭ, 1985.